IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 02 May 2026

NOMODDIY MADANIY MEROS SAQLOVCHILARINI RAG‘BATLANTIRISH UNI MUHOFAZA QILISHNING ASOSIY OMILIDIR

Nilufar Karimova
Madaniyatshunoslik va nomoddiymadaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi
Nilufarkarimova6006t0@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20337650

Annotatsiya: Maqolada nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, saqlash va avloddan-avlodga yetkazish jarayonlari ekspeditsiya tadqiqotlari asosida yoritilgan. Xususan Sirdaryo viloyatidagi an’anaviy gilamdo‘zlik, Buxoro viloyatidagi ipak qog‘oz va somon san’ati hamda Samarqand viloyatidagi egarchilik hunarining bugungi davomchilari faoliyati tahrir qilingan. Tadqiqot davomida hunarmandlarning ish jaryonlari, an’anaviy texnologiyalari, tabiiy materiallardan foydalanish usullari va ustoz-shogird an’anasi asosida hunarni saqlash tajribalari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: nomoddiy madaniy meros, an’anaviy hunarmandchilik, gilamdo‘zlik, somon san’ati, ipak qog‘oz, egarchilik, ustoz-shogird an’anasi, milliy qadriyatlar, ekspeditsiya tadqiqotlari, quroqchilik, kashtachilik.

Аннотация: В статье на основе экспедиционных исследований освещаются процессы охраны, сохранения и передачи из поколения в поколение нематериального культурного наследия. В частности, проанализирована деятельность современных продолжателей традиционного ковроткачества Сырдарьинской области, искусства изготовления шелковой бумаги и соломенного искусства Бухарской области, а также седельного ремесла Самаркандской области. В ходе исследования были изучены рабочие процессы мастеров, традиционные технологии, способы использования природных материалов и опыт сохранения ремесла на основе традиции «устоз-шогирд» (учитель–ученик).

Ключевые слова: нематериальное культурное наследие, традиционные ремесла, ковроткачество, соломенное искусство, шелковая бумага, седельное ремесло, традиция «учитель–ученик», национальные ценности, экспедиционные исследования, лоскутное шитьё, вышивка.

Abstract: The article highlights the processes of safeguarding, preserving, and transmitting intangible cultural heritage from generation to generation based on expedition research. In particular, it analyzes the activities of contemporary practitioners of traditional carpet weaving in the Syrdarya region, silk paper and straw art in the Bukhara region, and saddle-making craftsmanship in the Samarkand region. During the research, the artisans’ working processes, traditional technologies, methods of using natural materials, and experiences of preserving crafts through the master-apprentice tradition were studied.

Keywords: intangible cultural heritage, traditional craftsmanship, carpet weaving, straw art, silk paper, saddle-making, master-apprentice tradition, national values, expedition research, patchwork art, embroidery.

Bugungi kunda nomoddiy madaniy merosni saqlash davlat siyosati darajasida ko‘tarilmoqda. U xalqimizning ko‘p asrlik tarixi, hayot tarzi, dunyoqarashini o‘zida mujassam etgan qadriyatlar hisoblanadi. Unga an’anaviy hunarmandchilik, urf-odatlar, marosimlar, og‘zaki ijod, ijro san’ati kabi ko‘plab yo‘nalishlar kiradi. Bugungi globallashuv jarayonlari natijasida ayrim ma’naviy bilim va ko‘nikmalar yo‘qolib ketish xavfi ostida qolmoqda. Xususan Prezidentimiz tomonidan 2023-yil 25-dekbrdagi “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorda noyob (yoki) yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan nomoddiy madaniy merosni saqlovchi shaxslarni aniqlash, ularni ro‘yxatga olish va qo‘llab-quvvatlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Ular har oyda besh million so‘m pul miqdori bilan rag‘batlantirilib kelinmoqda.[1] Bu esa noyob meros namunalarini saqlovchi shaxslarning maqomini oshirish bilan birga, ularning faoliyatini rag‘batlantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu qaror ijrosini ta’minlash maqsadida Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan Respublika hamda xorijiy mamlakatlarda ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirilib kelinmoqda. Ekspeditsiya davomida nomoddiy madaniy merosning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha yo‘qolib ketish arafasida turgan nomoddiy madaniy merosni avloddan-avlodga meros qilib, ustoz-shogird an’anasini davom ettirib ketayotgan shaxslar aniqlandi. Maqolada hunarmandchilik bilan shug‘ullanib kelayotgan ayrim nomoddiy madaniy meros saqlovchilari faoliyati yoritilgan.

2024-yil 27-may kuni Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumanida o‘tkazilgan ekspeditsiya tadqiqotlari davomida hududda nomoddiy madaniy merosning qo‘l mehnati orqali qadimiy gilamdo‘zlak an’anasini davom ettirib kelayotgan Asiba Botirova xonadoniga bordik. Ular bolaligidan gilam to‘qish va kashtachilik san’atiga qiziqib, bu hunarni sir-sinoatini buvisi va onasidan mukammal o‘zlashtirgan. U bugungi kunda ushbu san’atning to‘rtinchi avlod vakili sifatida faoliyat yuritib, Sirdaryo hududiga xos an’anaviy hunarmandchilik yo‘nalishlarini saqlab kelmoqda. Asiba opa gilam to‘qish sirlarini gapirib berish bilan bir qatorda uni qanday tayyorlash jarayonlarini amaliy tarzda ko‘rsatib berdi. Gilam qo‘y junidan tayyorlanib, bahor va kuz fasllarida qo‘ylardan qirqib olingan junlar sovuq suvda yuviladi va quyoshda quritiladi. Quritilgandan so‘ng jun tozalanib, savalanadi va qo‘l bilan titilib, turli aralashmalardan xalos etiladi. Keyingi bosqichda jun “cho‘yka” (yumshatilgan) holatiga keltirilib, urchuq yordamida ipga aylantiriladi. Iplar ikki qavat qilib pishitilib, kalava shaklida tayyorlanib, gilam to‘qishga tayyor holatga keltiriladi. Gilamdo‘z iplarni bo‘yash jarayoniga ham alohida etibor qaratadi. U an’anaviy usullar yordamida tabiiy jismlardan foydalanadi. Jumladan, sariq rang uchun piyoz po‘chog‘i va o‘simlik barglari, yashil rang uchun o‘sma o‘ti, jigarrang uchun daraxt po‘chog‘i, pushti rang uchun esa quritilgan gullar ishlatiladi. Ranglarga jilov berib, yorqinlashtirish maqsadida “achchiq tosh” qo‘shiladi. Har bir rang bo‘yog‘iga iplar alohida qaynatilib, keyin quyoshda quritiladi.



Gilam to‘qish jarayonida birinchi navbatda o‘rmak (do‘kon) o‘rnatiladi. O‘rmakning asosiy qismlari bo‘lgan qilich, adarg‘i, va o‘qlov daraxt yog‘ochidan tayyorlanadi. Gilam to‘qishdan oldin unga qanday naqsh berilishini oldindan rejalashtiradi. Ular ikki turdagi gilamlar to‘qib kelmoqda: oddiy va jo‘varaq (patli) gilam. Jo‘varaq gilamning farqi uning patli bo‘lishida

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi “Nomoddiy madaniy meros obyektlarini saqlash va rivojlantirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-405-son qarori.

bo‘lib, undan turli maishiy buyumlar, sholcha, sumka, ro‘gizak kabilar tayyorlanadi.[2] Ilgari gilamlarda anor tasviri keng qo‘llanilgan u serfarzandlik va baraka ramzi sifatida talqin qilingan – deydi gilamdo‘z Asiba Botirova. Ular gilam to‘qishdan tashqari quroq va kashtachilikni ham mukammal o‘zlashtirgan. Asiba opa bugungi kunda o‘z hunarni avloddan-avlodga davom ettirish maqsadida qizlari va kelinlariga o‘rgatish bilan birga, o‘z shogirdlariga ham hunar sirlarini bosqichma-bosqich, amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rgatib, ustoz-shogird an’anasini davom ettirib kelmoqda. Hozirda ular Institunning nomoddiy madaniy merosni saqlovchisi sifatida saqlovchilar ro‘yxatiga kiritilgan.

Buxoro viloyatiga olib borilgan tadqiqotlar davomida nomoddiy madaniy merosning zamonaviy davomchilari sifatida faoliyat olib borayotgan yosh hunarmand Raupov Mirzobek ishlayotgan markazga tashrif buyurdik. U ipak qog‘ozga ishlov berish va somon san’atini targ‘ib qilib kelmoqda. Mirzobek ushbu hunarni ustozi Akmal Muhiddinovdan o‘rgangan bo‘lib, olti yildan buyon mazkur yo‘nalishda faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Mirzobek ustoz-shogird an’anasi asosida o‘z tajribasini yoshlarga o‘rgatib kelmoqda. Uning ta’kidlashicha, bugungi kunda ushbu mahsulotlarga bo‘lgan talab yuqori bo‘lib, ayniqsa xorijiy sayyohlar tomonidan katta qiziqish bilan xarid qilinmoqda. Bu esa milliy hunarmandchilik mahsulotlarining xalqaro bozorda ham o‘z o‘rniga ega ekanini ko‘rsatadi. Ushbu jarayonda tabiiy materiallardan foydalanish va an’anaviy texnologiyalarni saqlab qolishga alohida e’tibor qaratiladi. Masalan, qog‘oz tayyorlashda arpa va sulidan olinadigan tabiiy shiradan foydalanilishi ranglarning tarqalmasligi va uzoq vaqt saqlanishini ta’minlaydi.

Tarixiy manbalarda ham ipak qog‘ozga ishlangan asarlarning uzoq yillar davomida o‘z holatini saqlab kelayotgani kuzatiladi. Bu kabi namunalar hatto xorijiy muzeylarda ham saqlanayotgani milliy hunarmandchilik an’analarining yuksak darajasini ko‘rsatadi.



Mirzobekning keyingi faoliyatidagi somon sa’atiga bo‘lgan qiziqishini ko‘rib hayratlandik. Bu jarayon juda sabr-bardoshlikni talab etar ekan. Ushbu yo‘nalish qadimiy savatchilik va bo‘yrachilik an’analari negizida shakllangan bo‘lib, bugungi kunda miniatyura va applikatsiya san’ati bilan uyg‘unlashtirilgan. Hunarmand biz somonni ranglamaymiz, u tabiat tomonidan ranglab qo‘yilgan. faqatgina ishlov bersak bo‘lgani. Masalan, arpa poyasi oqishroq, bug‘doyniki sarg‘ishroq, sholi poyasi esa yanada qoramtirroq bo‘ladi – deydi. Har bitta somon poyasining o‘zini bo‘g‘imlari bor. Shular orasida so‘liniki kengroq bo‘lar ekan. U asosan, katta arxitekturalarda ishlatiladi. Yuqorida aytib o‘tilgan o‘simlik poyalaridan turli kompozitsiyalar yaratiladi. Tayyorlash jarayonlari juda ko‘p vaqt talab qilinar ekan.

Birinchi navbatta somon poyasi bir-ikki kun suvga bo‘ktirilib qo‘yiladi. Ko‘proq vaqt suvda turgan poya to‘qroq ranga kiradi. Turli vaqt davomida suvda bo‘ktirish orqali turfa ranglar hosil qilinishi esa ushbu san’atning o‘ziga xos texnologik jihatlaridan biridir. Keyingi jarayonda kompozitsiya chiziladi va uni qism-qism bo‘laklarga ajratib olinadi. Har bir bo‘lak muayyan rangga mos ravishda tayyorlanadi. Keyingi bosqichda maxsus ishlov ya’ni kuydirish (dazmollash) usuli qo‘llaniladi, tasvirlarga chuqurlik va ifodalilik beriladi. Bunda somon poyalari bilan bir qatorda barglardan ham foydalanilishi kompozitsiyaning tabiiyligini yanada oshiradi. Uning ijodida somon san’atidan tarixiy obidalar, gullar, minyatyura san’atidagi tasvirlar, tarixiy shaxslar suratlari kabi kompozitsiyalar o‘rin olgan. Hunarmand o‘z faoliyatini mahalliy va

[2] Gilam to‘qish jarayonlari haqida ma’lumotlar dala tadqiqoti. Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani ekspeditsiya materiallari, 27.05.2024.

xalqaro festivallarda ko‘rgazmalar orqali namoyish etib kelmoqda. Ayrim sayyohlar bevosita jarayonda ishtirok etib, o‘z qo‘llari bilan tayyorlagan mahsulotlarni xarid qilish imkoniyatiga ham ega bo‘lmoqdalar.[3] Avvalo, somon san’ati ekologik jihatdan toza va tabiiy materiallarga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda dunyo miqyosida “eco-friendly” (ekalogik toza mahsulot) mahsulotlarga bo‘lgan talab oshib borayotgan bir paytda, somondan tayyorlangan buyumlar zamonaviy bozor talablariga javob bermoqda.

2025 yil 19 fevral kuni Samarqand viloyati Jomboy tumani Nayman tepa mahallasida o‘tkazilgan ekspeditsiya tadqiqotlari davomida an’anaviy egarchilik san’atini avloddan-avlodga davom ettirib kelayotgan oilaning 3 sulolasi Abdushukur Abdurashidov xonadonida bo‘ldik. Abdushukur aka yoshligidan ot boqishga qiziqib, chavandozlik bilan shug‘ullangan. Asosiy kasbi traktor ҳайдовчиси bo‘lishiga qaramasdan, u 18 yoshidan boshlab bu hunarni ota-bobolaridan meros qilib olgan. Shu tariqa egarchilik san’ati mazkur oilada bir necha avlod davomida saqlanib kelmoqda.

Ustaning ta’kidlashicha, ot qadimdan o‘zbek xonadonida fayz-baraka va rizq manbai sifatida qaralgan. Shu bois, otchilik bilan bog‘liq hunarlar, jumladan, egarchilik alohida ehtiromga sazovor bo‘lgan.

Abdushukur aka hozirgi kunda ham ushbu hunarni davom ettirib, uni o‘z o‘g‘li Abdurahimov Azizjonga o‘rgatib kelmoqda. Azizjon 1984-yilda tug‘ilgan bo‘lib, yoshligidan otasining ish jarayonlarini kuzatib, amaliy tarzda hunarni o‘zlashtirmoqda. Uning aytishicha, hatto 4-5 yoshidayoq kichik egar yasashga urinib ko‘rgan. Bugungi kunda u mustaqil ravishda egar yasash bilan shug‘ullanib, sulolaviy an’anani davom ettirmoqda.

Egar yasashning o‘ziga yarasha mashaqqati bor. Buni yasash uchun juda katta iroda va sabr-toqat kerak bo‘ladi. Ishlaganda ham mehr bilan ishlash kerak, bo‘lmasa siz xoxlagandek chiroyli, sifatli chiqmaydi. Shuning uchun qunt bilan mustahkam yasash lozim. Bu kasbga ham qaysidir ma’noda insonning sog‘lig‘iga javobgar siqatida qarash lozim bo‘ladi, axir biz yasagan egarlar mustahkam bo‘lmasa, sifatli bo‘lmasa ot ustiga o‘rnatilganda otga mingan odam yiqib, qaysidir a’zosi shikastlanishi mumkin – deydi usta Abdushukur aka. Bitta egar yasash uchun bir oy vaqt ketadi. Egarlar har xil razmerda yasaladi. 18-20 sm va 19-23 smli egarlar bo‘ladi. Egar yasash uchun oq tol yog‘ochi ishlatiladi. Bu yog‘och yengil, pishiq va chidamli bo‘lgani uchun egarchilikda eng maqbul xom ashyo hisoblanadi.[4] Yog‘och avval po‘stlog‘idan tozalanib, 3-4 oy davomida quritiladi va shundan keyin ishlatishga tayyor holga keladi.



Egar yasashda kerak bo‘ladigan, ko‘p vaqt talab qilinadigan mahsulot bu qo‘y payidan tayyorlanadigan tolalardir. Yangi so‘yilgan qo‘yning oyoq paylari bir oy davomida quyoshda quritiladi. Qurigach mayda ingichka tolalardek qilib titib chiqiladi. Titilgan payga kley va suv qo‘shib qaynatiladi va 3-4 soat uvitilib qo‘yiladi.

Egar 21 ta qismdan iborat bo‘lib, ular qatoriga tag qismi, ust qismi, yonbosh, qosh, yostiqcha, karson, kapsan kabi elementlar kiradi. Har bir qism aniq o‘lcham va ketma-ketlik asosida tayyorlanib, maxsus yog‘och yelim (kley) yordamida biriktiriladi. Qosh (egarning old va orqa qismi) ham faqat oq toldan tayyorlanadi va u “so‘qma qosh” uslubida o‘rnatiladi. Egarning mustahkamligini ta’minlashda ya’ni har bir detalni bir-biriga birlashtirishda qo‘y payidan tayyorlangan tolalar suriladi. Bu jarayon bir necha marta takrorlanib, mahsulotni chidamliligini ta’minlaydi. Egarni ikki xil turi mavjud. Oddiy egar va ko‘pkari (uloq) egarlari. Ular bir biridan

[3] Ipak qog‘oz va somon san’ati bo‘yicha ma’lumotlar dala tadqiqoti. Buxoro viloyati Buxoro tumani ekspeditsiya materiallari, 17.10.2024.
[4] O‘zbek an’anaviy egarchilik san’ati: etnografik tadqiqotlari. Samarqand viloyati Jomboy tumani 19.02.2025.

farq qiladi. Ko‘pkari uchun mo‘ljallangan egarlar balandroq va mustahkamroq qilib yasaladi. Chunki ular ekstremal sharoitlarda ishlatiladi va inson xavfsizligi bilan bevosita bog‘liq.

Egar yasash jarayonida turli asbob-uskunalardan foydalaniladi: tesha, arra, randa, bolta va boshqa an’anaviy qurollar qo‘llaniladi. Tayyor mahsulot keyinchalik charm bilan qoplanib, maxsus ishlov beriladi. Ustaning aytishicha, to‘g‘ri sharoitda saqlangan egar 100 yilgacha xizmat qilishi mumkin. Bu esa mazkur hunarning nafaqat amaliy, balki yuqori sifat va mustahkamlikka asoslanganligini ko‘rsatadi. Samarqand egarchiligi boshqa hududlardan qosh qo‘yilishi bilan farqlanadi. Bu yerda yasalgan egarlar “qalpoqi egar” deyilar ekan. Egar qoshini esa “suqma qosh” deb atashadi.

Abdushukur aka oilasida nafaqat erkaklar, balki turmush o‘rtog‘i Abduraimova Norsuluv ham ushbu jarayonda faol ishtirok etib, egar tayyorlash ishlarida yordam berib kelmoqda. Ushbu oila an’anaviy egarchilik san’atining nafaqat saqlanib qolayotgani, balki sulolaviy asosda rivojlanib, keyingi avlodga meros bo‘lib o‘tayotganiga sabachi bo‘lmoqda.

Xulosa qilib aytganda Ushbu meros namunalarini saqlash, ilmiy jihatdan o‘rganish va kelajak avlodga yetkazish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda ayrim an’anaviy hunarlar, bilim va ko‘nikmalarning yo‘qolib ketish xavfi ushbu sohada tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Ekspeditsiya tadqiqotlari davomida o‘rganilgan Asiba Botirova, Mirzobek Raupov hamda Abdushukur Abdurashidov kabi hunarmandlar faoliyati shuni ko‘rsatadiki, nomoddiy madaniy meros faqat muzey yoki arxivlarda saqlanadigan tarixiy boylik emas, balki bugungi kunda ham yashab kelayotgan, amaliy hayot bilan chambarchas bog‘liq madaniy jarayondir. Ular o‘z hunarlari orqali nafaqat qadimiy an’analarni saqlab kelmoqda, balki ustoz-shogird an’anasi asosida uni keyingi avlodga yetkazishga ham xizmat qilmoqdalar. Demak, nomoddiy madaniy merosni saqlovchi shaxslarni aniqlash, qo‘llab-quvvatlash, ularning faoliyatini ommalashtirish hamda yosh avlodni ushbu an’analar ruhida tarbiyalash milliy madaniyatimizning uzviy davomiyligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.\

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi “Nomoddiy madaniy meros obyektlarini saqlash va rivojlantirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-405-son qarori.
2. Gilam to‘qish jarayonlari haqida ma’lumotlar dala tadqiqoti. Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani ekspeditsiya materiallari, 27.05.2024.
3. Ipak qog‘oz va somon san’ati bo‘yicha ma’lumotlar dala tadqiqoti. Buxoro viloyati Buxoro tumani ekspeditsiya materiallari, 17.10.2024.
4. O‘zbek an’anaviy egarchilik san’ati: etnografik tadqiqotlari. Samarqand viloyati Jomboy tumani 19.02.2025.